

O'TKIR HOSHIMOVNING PSIXOLOGIK TASVIR MAHORATI ("URUSHNING SO'NGGI QURBONI" HIKOYASI MISOLIDA)

Sayyora Shavkatbekqizi Matkarimova

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Boshlang‘ich ta’lim fakulteti o‘qituvchisi

Muslima Nabidjonovna Umaraliyeva

Chirchiq davlat pedagogika universiteti

Gumanitar fanlar fakulteti, O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi

IV-bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada yozuvchi O’tkir Hoshimovning “Urushning so‘nggi qurboni” hikoyasidagi obrazlar misolida psixologik tasvir mahoratiga oid fikr-mulohazalar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: hikoya, qissa, ruhiyat, davr, fojea, obraz, ocherk, roman, mahorat.

ANNOTATION

In this article, opinions on the skill of psychological imagery are presented on the example of characters in the story "The Last Victim of War" by writer O'tkir Hashimov.

Keywords: story, short story, mentality, period, tragedy, image, essay, novel, skill.

O‘zbekiston xalq yozuvchisi, noyob iste’dod sohibi O’tkir Hoshimov o‘zining ajoyib hikoya, qissa va romanlari bilan adabiyotimiz taraqqiyotiga munosib ulush qo‘shti. U adabiyotga kirib kelgan paytda Abdulla Qahhordek hassos adib e’tiborini jalb qilgan iste’dodli yosh yozuvchilardan edi.

O’tkir Hoshimov 1941- yilning 5-avgustida Toshkent viloyatining Zangiota tumani Do‘mbirobod mahallasida tavallud topdi. Bolaligi urush qiyinchiliklari, muhtojliklari davrida kechgan.

O’tkir Hoshimov o‘zining sermahsul ijodini she’r va ocherklar yozishdan boshladi. 1962-yilda uning “Po‘lat chavandoz” ocherklar to‘plami bosilib chiqdi. Shundan keyin uning birin-ketin hikoya, qissa va romanlari kitobxonlarning qo‘liga borib tegdi. Uning ilk qissasi “Cho‘l havosi” (1964) adabiy jamoatchilik tomonidan iliq qarshi olindi. Atoqli adib Abdulla Qahhor bu qissa haqida o‘sha paytda juda yaxshi fikr bildirgan. O’tkir Hoshimovning bu qissasiga yozgan oq yo‘lida u “Birdan lov etib alanga bilan boshlangan ijodning kelajagi porloq bo‘ladi”, -deb bashorat qilgan edi. Shu asardan yozuvchining izlanish va mashqlar davri boshlandi. Adib ijodidagi ilk qadamlaridayoq inson ma’naviyati, ruhiyat, hissiyoti, qalb haqiqati tadqiqotchisi sifatida ko‘ringan edi. Yozuvchining hikoya, qissalaridagi voqealar nihoyatda jonli, ta’sirli va real tasvirlanardiki, kitobxon bevosita asardagi muhitga tushib qolgandek bo‘lardi.

Adibning urush yillari, o'sha davrda yashagan insonlarning fojeali taqdirini yorqin aks ettirgan o'lmas asarlaridan biri bu "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasidir. Asarda ko'planning yostig'ini quritgan urush, yo'qchilik azobi va og'ir dardga chalingan farzandiga jonini ham berishga tayyor turgan munis onaning iztiroblari juda yuksak badiiy mahorat bilan tasvirlangan.

Yozuvchi "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasida ijtimoiy muammolar, oilaviy munosabatlar, inson qalbining, ruhiyatining tahliliga alohida e'tibor qaratadi. Asardagi Umri xola, Shoikrom va Xadicha obrazlarining og'ir o'y-kechinmalari, hayot qiyinchiliklariga nechog'lik bardoshliligi kitobxonni larzaga soladi.

Hikoya Shoikromning ayvon to'ridagi sandal chetida xomush o'tirishi tasviri bilan boshlanadi. Voqealar bahor faslida ro'y beradi. "Bo'z ko'rpa ustidan yopilgan, shinni dog'i qotgan quroq dasturxon ham, hozirgina go'jadan bo'shagan sopol tovoq, bandi kuygan yog'och qoshiq ham uning ko'ziga xunuk ko'rinish ketdi. Ammo beparvolik bilan qo'l siltadiyu, do'ppisini sandal ustiga tashlab yonboshladi." Bu tasvirlar orqali qahramon ruhiyatidagi hayotdan norozilik tuyg'usini ifodalash uchun O'tkir Hoshimov eng mayda detallargacha ahamiyat qaratadi.

"Birdan xayoliga kelgan fikrdan uning vujudi titrab ketdi. Qora kunlari uchun ne umidlar bilan tishida tishlab yurgan g'unajinini o'g'irlagani uchun, o'lim to'shagida yotgan ukasining oxirgi nasibasidan mahrum qilgani uchun non puli bo'lar deb yetishtirgan mevasidan judo qilayotgani uchun shundoq qasos olsinki, o'sha xudo bexabarlardan". Ushbu parchada ham Shoikromning ichki kechinmalari, uni ezayotgan dard va xayollari yaqqol tasvirlanadi. Urush tufayli oziq-ovqat tanqisligi, ro'zg'or tebratish mashaqqati va bedavo sil kasaliga chalingan Shone'matning tashvishi ham Umri xolaning, ham Shoikromning qalbini o'rtaydi. Xadichaning ba'zi injiqqliklari, qolgan ovqatni ertalab eriga isitib berish uchun qaynonasiga olib chiqmagani; bolalarini jerkib: "Ovozi o'chsa koshkiydi! To'qqiz kechasida jin tekkan bunga!-deyishi, Shoikromning "Kambag'alning ekkani unmaydi, bolasi ko'payadi o'zi. Shu klinikdan ko'ra urushga borib o'lib keta qolganim yaxshiydi"-deb o'ylashi-hammasi urush tufayli yuzaga kelgan yetishmovchiliklar sabab edi.

Shoikrom xotini haqida: "Azaldan qurumsoq edi, zamon og'irlashgandan buyon battar bo'ldi"-deydi. Asardagi bu kabi tasvirlar qahramonlar ruhiyatidagi ezg'inlik, o'ksinish hissi, noilojlik tuyg'usi-urushning asorati sifatida ko'rsatilgan.

Shoikromning o'g'irlab ketilgan sigiri alamida xotiniga tarsaki tortib yubormaslik uchun yuzini o'girib, tishini g'jirlatishi uning psixikasida ro'y berayotgan g'alayonlar ifodasidir. Shu sababli ham u o'grilardan nafratlanadi. Bolalari va bemor ukasining "og'zini quritgan" sigirini o'g'irlagan va qulupnayalarini ham tunda terib ketayotgan o'g'rini ushlab olsa, chopib tashlardim deb shaxd qiladi. Shu o'rinda Shoikrom echkisi o'g'irlab ketilgan Ilhom samovarchining xotini pichoqlab ketilganini eslaydi.

Qulupnay pushtalari orasiga tashlab chiqilgan elektr simlariga o'ralashib qolib o'lim topgan Umri xolaning jasadini ko'rgan Shoikrom va Shone'matning ruhiy iztiroblari juda yuksak mahorat bilan tasvirlanadi. Yozuvchi hikoya so'ngida mushfiq onaning o'limi dahshatini ko'rsatish uchun Shone'matni ham tilga kirgizadi: "Sut ichmay zahar ichsam bo'lmasmidi. Kechayam aytuvdim ko'nmadilar. Qulupnayga sut alishadi, dedilar". Umri xolani qabrga

qo‘yib kelishayotganda urush tugaganligi haqidagi gapni eshitishadi. Mana shu xabar Umri xola fojeasining yakuni bo‘ladi, ya’ni u urushning so‘nggi qurbaniga aylanadi.

“Urushning qora qanoti uzoqlab ketgan bo‘lsayam, hamon uning soyasi odamlar boshiga ko‘lanka tashlab turibdi. Hali u qo‘shninikida aza ochiladi, hali bu qo‘shninikida”-deydi asarda yozuvchi. O‘tkir Hoshimovning asl mahorati ham shundaki, asarlari orqali nima demoqchiligini va voqeanning chin mohiyati, sabablari, oqibatlariga asar orasida qisqagina izoh berib o‘tadi.

Demak, O‘tkir Hoshimov qalami o‘tkir yozuvchi ekanligini uning har bir asarida ko‘rishimiz mumkin. Xoh hikoya, xoh qissa, xoh roman bo‘lsin-barchasida tug‘ma iste’dod ifodasi o‘laroq nozik kechinmalar, qahramonlar ruhiyati tasviri mohirona, ustalik bilan aks ettirilgan. Adibning betakror ijodi hamisha adabiyotimiz sahifalarini bezab turishi, shubhasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.

1. Karimov N. XX asr adabiyoti manzaralari. T.O‘zbekiston.2009
2. O‘tkir Hoshimov.Tanlangan asarlar.T. G‘afur G‘ulom. 2021
3. Achilova E.O‘tkir Hoshimovning psixologik tasvir vositalaridan foydalanish mahorati.T. 2022
4. Matkarimova, S. S. Q. (2021). MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINING ELEKTRON RESURSLARINI YARATISHDA TALMEH SAN’ATINING O ‘RNI. Scientific progress, 1(6), 528-534.
5. Маткаримова, С. Ш. Қ. (2020). АДАБИЁТ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ДАРСЛИКЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ. Science and Education, 1(Special Issue 3), 127-133.
6. Shavkatbek qizi, M. S. (2022). MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI ZAMONAVIY USULDA О‘RGANISH. ЗАМОНАВИЙ ЎЗБЕК АДАБИЁТИ РИВОЖИДА УСМОН НОСИР ИЖОДИЙ МЕРОСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ МАВЗУИДАГИ ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН, Наманган – 2022, 438.
7. Matkarimova, S. S. Q. (2022). MUMTOZ ADABIYOT NAMUNALARINI ZAMONAVIY USULDA О ‘RGANISH (10-SINF ADABIYOT DARSЛИGI) MISOLIDA. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(10), 425-429.
8. Сулейманова, С. А. (2021). Дервишество русской и русскоязычной литературе. Academic research in educational sciences, 2(8), 444-448.
9. Suleymanova, S. A. (2022). Dervish in Russian and Russian Language Literature. International Journal Of Multidisciplinary Research In Science, Engineering and Technology, 5(2), 365-366.
10. Сулейманова, С. А., & Шеркулова, Ш. (2022). К вопросу о концепте учителя в классической. Central Asian Research Journal for Interdisciplinary Studies (CARJIS), 2(1), 433-437.
11. Сулейманова, С. (2022). Формирование личности учителя и отношение общества к учителю. Экономика и социум, 1045-1050.
12. Сулейманова, С. А. (2021). Дефиниция концепта в современном литературоведении. Academic research in educational sciences, 2(10), 351-355.